



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020,
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA

Тахририят

манзили:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru

liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 *O.X.Xamidov*
Oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari integratsiyaning asosiy tendensiyalari va muammolari
- 9 *O.R.To'xsanov*
Uzluksiz ta'lim tizimida sharq mutafakkirlarining «ilm olmoq» ta'limoti mohiyati
- 13 *G.O.Hasanova*
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innofatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi
- 17 *M.M.Nigmatova*
Mashg'ulotlardan zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish
- 21 *G.Kamilova, G.Kurbonova*
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv
- 25 *Z.B.Jalilov, N.H.Azimova, S.Rahmonova*
Ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlar
- 29 *S.S.Avezov*
O'qituvchi nutq madaniyati kompetentligi
- 33 *G.U.Umarova*
Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivoshlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarning ahamiyati
- 38 *D.Sh.Mirzayeva*
Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori
- 42 *D.Sh.Eshova, N.N.Hamroyeva*
Bolalar nutqini o'stirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati
- 46 *M.Y.Ro'ziyeva, Ch.T.Xemrayeva*
Ta'limda xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati va ularni o'rgatishning innovatsion usullari

MA'NAVIY TARBIYA

- 50 *G.Sh.Rahmonova*
Shaxs kamolotida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-axloqiy va pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish
- 55 *M.B.Sharipova*
O'qituvchi-yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana marosimlarning ahamiyati
- 59 *G.B.Ergasheva*
Личностное отношение условий учебной и профессиональной деятельности учителя
- 64 *C.D.Huязова*
Роль игры в экологическом образовании дошкольников
- 69 *J.G.Paculoва*
Формирование элементарных математических представлений у дошкольников через дидактические игры
- 74 *Sh.Sh.Nizomova*
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovu tizimini shakllantirish
- 78 *I.X.Rajabova*
Особенности организации и проведения дидактических игр с детьми старшего дошкольного возраста
- 84 *H.A.Xamraeva*
Методы использования инновационных технологий на уроках русского языка и литературы
- 90 *N.S.Turdiyeva, Z.M.Ashurova*
O'z-o'zini tarbiyalash borasidagi ajdodlarimiz qarashlari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 94 *G.D.Huязова, H.Ikramova*
Роль методической службы в развитии профессиональной компетентности педагога ДОО
- 99 *L.T.Ochilova, L.Ch.Rajabova*
Математика mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati
- 103 *F.F.Nurullayev, N.A.Ukramova*
Oilada sog'lom, man'aviy-axloqiy muhit
- 107 *Sh.H.Qulieva, A.A.To'raev, F.Sh.Avezova*
Tizimni yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TOVUSH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Sh. Sh. NIZOMOVA,
BuxDU o'qituvchisi

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalar nutqini o'stirishning poydevori bu fonetik idrokni shakllantirishdir. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yosh bosqichlarida tovush madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: *nutq, bo'g'in, talaffuz, tafakkur, sharoit.*

Основой речевого развития детей в дошкольном образовании является формирование фонетического понимания. В статье рассматривается формирование звуковой культуры на ранних этапах речевого развития у дошкольников.

Ключевые слова: *речи, слог, акцент, мышление, условия*

The foundation of children's speech development in preschool education is the formation of phonetic comprehension. This article discusses the formation of sound culture in the early stages of speech development in preschool children.

Key words: *speech, joint, pronunciation, contemplation, conditions*

Mustaqil taraqqiyot yo'lidan dadil borayotgan Respublikamizda har bir insonning ozod va erkin, farovon yashashini ta'minlovchi jamiyat barpo etilmoqda, yoshlarning ilm - ma'rifatli bo'lishiga barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki bizning ertangi kunimiz Prezidentimiz aytganlaridek: "Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy mutaxassislarni talab etadi".¹

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofda gilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan bir qatorda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining faol rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilishi lozim.

Mualliflar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko'rsatadilar, ularni har-xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar. G. L. Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishni 2 davrga ajratadi: 1. Tayyorlov davri. (2 yoshgacha bo'lgan davr) 2. Nutqning mustaqil shakllanish davri. A.N. Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi:



Tayyorgarlik davri- 1 yoshgacha.

Bog'chagacha bo'lgan davr- 3yoshgacha.

Maktabgacha bo'lgan davr- 7 yoshgacha.

Maktab davri.

Bu davrlarning to'liq tavsifi ustida to'xtalib o'tamiz. Shunday qilib,

Birinchi davr-tayyorgarlik davri.

Bola tug'ilgan daqiqadan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yig'idan iborat bo'ladi. To'g'ri, bu ovoz odam nutqidan uzoq. Lekin, ana shu qichqiriq va yig'i nutq apparatining 3 bo'limini (nafas olish, ovoz hosil bo'lish, artikulyatsion) rivojlanishda katta rol o'ynaydi. Ikki hafta o'tgach, bola gapirayotgan odamning ovozigacha e'tibor bera boshlaydi. Unga gapirayotganda quloq soladi, yig'lashdan to'xtaydi.

Bir oyligining oxiriga borib, uni mayin qo'shiq (ALLA) ostida tinchlantirish mumkin bo'lib qoladi. Keyinchalik u boshini gapirayotgan odam tomonga buradi yoki uni ko'zlari bilan kuzatadi. Tez kunda bola intonatsiyaga e'tibor bera boshlaydi: mayin gapirganda tinchlanadi, keskin intonatsiyaga yig'laydi. Ikki oylik atrofida gu-gulash, uch oylikning boshida bug'inlarning talaffuzi paydo bo'ladi.(aga-aga, ta-ta, ba-ba va boshqadar)

Bunda tovushlar birikmasi aniq artikulyatsiya qilinmaydi. Bola besh oyligida tovushlarni eshitadi. Atrofdagilarning lablari artikulyatsion harakatini ko'rib, unga taqlid qilishga harakat qiladi. Bolaning qandaydir aniq harakatlarni ko'p marotaba takrorlashi harakat ko'nikmasining mustahkamlanishiga olib keladi. Olti oyligidan boshlab bola taqlid qilish orqali ba'zi bug'inlarni talaffuz eta boshlaydi: na-na-na, be-be-be, da-da-da, pa-pa-pa va boshqalar. Keyinchalik bola taqlid qilish orqali nutqning xilma-xil elementlarini asta-sekin o'zlashtira boshlaydi. Bunda bola nafaqat fonemalarni, balki nutqning sur'at, ritm, ton, musiqaviyligi, ifodaliligini o'zlashtiradi.

Ikkinchi yarim yillikda bola ba'zi bir tovushlar birikmasini idrok qila boshlaydi va ularni predmetlar yoki harakatlar bilan bog'laydi. (bu, ma, bey). Bola yetti - to'qqiz oyligida kattalardan so'ng turli xil bo'g'inlarni takrorlay boshlaydi. O'n - o'n bir oyligida so'zlarning o'ziga reaksiya paydo bo'la boshlaydi. (vaziyat va gapirayotgan kishining intonatsiyasidan qat'iy nazar) Bu vaqtda bola nutqi shakllanayotgan shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.(kattalarning to'g'ri nutqi va kattalarga taqlid qilish va hokazolar).Bola hayotining birinchi yilining oxiriga kelib unda nutqiy aloqada



bo'lish ehtiyoji o'sib boradi. U bir nimani olishni, so'rashni aytishni xohlaydi. Bu ehtiyoj bolaning butun faoliyatida ishtirok etadi va unda aktiv nutqning paydo bo'lishini belgilab beradi. Bir yoshning oxiridan boshlab bolada faol nutq rivojlanib boshlaydi. Birinchi so'zlar paydo bo'ladi.

Ikkinchi davr-bog'chagacha bo'lgan davr.(1yoshdan 3 yoshgacha). Bolada birinchi so'zlar paydo bo'lgandan so'ng tayyorlov davri tugab faol nutqni egallash davri boshlanadi. Bu vaqtda bola atrofdegilar artikulyatsiyasiga e'tibor beradi. U gapirayotganlar orqasidan so'zlarni ko'p marotaba takrorlaydi va o'zi ham so'zlarni talaffuz qiladi. Talaffuz vaqtida bola ba'zi tovushlarni noto'g'ri talqin etadi, o'rni almastiradi yoki o'z nutqida qo'llamaydi. Bu vaqtda bola bir so'z yoki tovushlar birikmasi bilan predmetni ham, iltimosni ham, his-tuyg'uni ham ifodalashi mumkin. Bola hayotining 2-3 yiliga kelib, uning lug'at boyligi sezilarli darajada boyib boradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina xilma-xil tadqiqotchilar bola so'z boyligining o'sib borishida turli raqamli ma'lumotlarni ko'rsatadilar. Eng keng tarqalgan ma'lumotga ko'ra, bolalarning lug'at boyligini bog'chagacha bo'lgan davrda o'sishi quyidagi raqamlarni ko'rsatadi:

1 yoshu 6 oyda 10-15 ta, 2 yoshning oxiriga kelib 300 ta, 3 yoshda 1000 ta so'z. Bola hayotining uchinchi yiliga kelib, nutqning grammatik tomoni shakllana boshlaydi. Avval bola o'z xohishi va iltimoslarini har bir so'z bilan ifodalaydi. Keyinchalik 1-2 ta so'zdan iborat sodda jumlar paydo bo'la boshlaydi.

Uchinchi davr- maktabgacha bo'lgan davr. (3 yoshdan 6 yoshgacha).

Maktabgacha bo'lgan davrda bolalar birinchi navbatda artikulyatsion jihatidan oson talaffuz etiladigan: lab-til undoshlari (p, b, m, f, v) va boshqalarni o'rgana boshlaydilar. Artikulyatsion jihatidan talaffuz etish qiyin bo'lgan: shivirlovchi, sirg'aluvchi (s, z, sh, j, ch) va sonor (r, l)til orqa (k, g) tovushlarni talaffuzini egallashga qiynaladilar. Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda noto'g'ri qo'llaydilar yoki talaffuz etmaydilar. 3-7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarda eshitish malakalari rivojlanib boradi, bu esa bolaning o'zi talaffuzini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Ba'zi hollarda bolalar o'z kamchiligini to'g'riylaydilar. Ularda fonematik idrok shakllanib boradi.

Bola avval unli va undoshlarni, so'ng sonor, shovqinli va sirg'aluvchi tovushlarni ajrata boshlaydi. Asosan 4 yoshli bola esa barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakllangan bo'lishi lozim. Bu vaqtga kelib, tovushlarni to'g'ri talaffuz o'zining shakllanishi tugallanadi va bola har



tomonlama to'g'ri aniq gapira oladi.

To'rtinchi davr-maktab davri (7 yoshdan 17 yoshgacha). Bu davrning o'ziga xos tomoni shundaki, bolalar nutqining rivojlanishi oldingi davrlarga nisbatan ongli ravishda ro'y beradi. Bu davrda bolalar tovushlar analizi, nutqning grammatik qonuniyatlarini egallaydilar. Bu davrda nutqning yangi turi yozma nutq yetakchi rol o'ynaydi. Grammatik konstruksiyalar ham murakkablashib boradi, chunki, agar, qachonki kabi bog'lovchilarni ishlata boshlaydilar. Bu bolaning tafakkur jarayonlari murakkablashib borayotganligini va bu nutqda o'z ifodasini topayotganligini ko'rsatadi. Bolada nutqning to'g'ri rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. M. Tankidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T., 2017.
2. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T., 2017.
3. P.M. Po'latova "Oligofrenopedagogika" Toshkent 2005 yil.
4. V.S. Raxmanova "Maxsus pedagogika" Toshkent 2004 yil.